



AESTHETIC TASTE AND ARTIFICIAL BEAUTY: A CRITIQUE OF A MASS CULTURE PHENOMENON

Sardor Isomiddinovich Quvvatov

Lecturer

the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Eldor Abduraimov

Lecturer

the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: aesthetic taste, artificial beauty, mass culture, globalization, aesthetics, art, psychological impact, ethics.

Received: 20.06.25

Accepted: 22.06.25

Published: 24.06.25

Abstract: This article provides a critical analysis of the concepts of aesthetic taste and artificial beauty within the context of contemporary mass culture. It examines the beauty standards disseminated through social media and digital platforms, as well as their impact on individuals' psychological states and social consciousness. The widespread prevalence of artificial beauty is discussed in terms of its limitations on individuality and effects on national aesthetic values. The article emphasizes the importance of preserving and renewing national aesthetics in the face of global processes.

ESTETIK DID VA SUN'IY GO'ZALLIK: OMMAVIY MADANIYAT HODISASINING TANQIDI

Sardor Isomiddinovich Quvvatov

O'qituvchi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Eldor Abduraimov

O'qituvchi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: estetik did, sun'iy go'zallik, ommaviy madaniyat, globallashuv, estetika, san'at, psixologik ta'sir, axloq.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ommaviy madaniyat kontekstida estetik did va sun'iy go'zallik tushunchalarini

chuqur va tanqidiy tahlili, ijtimoiy media va raqamli platformalar orqali shakllantirilayotgan go'zallik me'yorlari, shuningdek, ularning shaxslarning psixologik holati, ijtimoiy ong va madaniy identitetga ta'siri ilmiy asosda ko'rib chiqilgan. Sun'iy go'zallik idealining keng yoyilishi orqali individuallikning cheklanishi, milliy madaniy qadriyatlar va tabiiy go'zallik tushunchalarining o'zgarishi, shuningdek, go'zallikning tijoratlashtirilishi jarayonlari yoritib berilgan.

ЭСТЕТИЧЕСКИЙ ВКУС И ИСКУССТВЕННАЯ КРАСОТА: КРИТИКА ФЕНОМЕНА МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ

Сардор Исомиддинович Кувватов

Преподаватель

Узбекско-Финского педагогического института

Элдор Абдураимов

Преподаватель

Узбекско-Финского педагогического института

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: эстетический вкус, искусственная красота, массовая культура, глобализация, эстетика, искусство, психологическое воздействие, этика.

Аннотация: В статье проводится критический анализ понятий эстетического вкуса и искусственной красоты в контексте современной массовой культуры. Рассматриваются стандарты красоты, распространяемые через социальные сети и цифровые платформы, а также их влияние на психологическое состояние и социальное сознание личности. Обсуждается влияние широкого распространения искусственной красоты на ограничения индивидуальности и воздействие на национальные эстетические ценности. В статье подчеркивается важность сохранения и обновления национальной эстетики в условиях глобализации.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy va ma'rifiy islohotlar, jamiyatdagi estetik madaniyatni shakllantirish va uning rivojlanishini ta'minlashga katta e'tibor qaratilganligini ko'rsatadi. Bu jarayonda siyosiy, ijtimoiy, falsafiy, estetik va axloqiy o'zgarishlar bilan birga, ma'naviy hayotni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar shaxsning ma'naviy saviyasini oshirish, uning har tomonlama

rivojlanishiga va komillashishiga yordam beradi. Bunda, mustaqillikni mustahkamlash va milliy g'oyani chuqur his-tuyg'ular asosida tushunish, ularni hayotga tatbiq etish orqali shaxsni samarali tarbiyalashning ahamiyati katta. Shaxsni estetik tarbiyalash va ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, jamiyatning yangi bosqichda taraqqiyotga intilishini ta'minlash, mahalliy va global kontekstda muhim vazifalarga aylandi. Bu xususida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ayni vaqtda, madaniyat sohasida jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlarimizni haqiqiy san'atni anglashga o'rgatish, ularning estetik olamini sog'lom asosda shakllantirish bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi" [1,196].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O'zbekistonda estetik tafakkur, go'zallik me'yorlari va ommaviy madaniyatning shaxs ongiga ta'siri masalalari E.Umarov, A.Sher, B.Husanov, U.Qoraboyev, Q.Nazarov, M.Nurmatova, O.Nishonova, O.G'aybullayev, N.Abdullayeva, Z.Karimov, D.Qodirova, N.Agzamova, H.Karimov, X.Shayxova kabi olimlar tomonidan turli nazariy va falsafiy yondashuvlar asosida tadqiq qilingan. Tadqiqotlarda estetik didning shakllanishiga ommaviy axborot vositalari, moda industriyasi, reklama, va internet madaniyatining ta'siri keng yoritilgan. Mualliflar sun'iy go'zallikni iste'molchilik jamiyati mahsuli sifatida baholab, bu jarayonni insonning tabiiy estetik qarashlaridan uzoqlashuvi bilan bog'lashadi.

Tadqiqot metodologiyasida tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, kontent tahlil, tizimli tahlil, kuzatuv, kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Shaxs estetik ongining muhim qismi bo'lgan estetik did jamiyatning mafkuraviy va ma'naviy asoslaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning estetik olamini shakllantirish, odamlarning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan estetik jihatdan kamol topishlarini ta'minlash, har tomonlama rivojlangan shaxslar borlig'ini hosil qilishga xizmat qiladi. Estetik did, nafaqat kishilar orasida san'atni tushunish, balki hayotning turli sohalarida, hatto kundalik hayotda ham chiroylilik va nafosatni qadrlashga asoslanadi. Shunday qilib, estetik did, bir tomondan, jamiyatning madaniy saviyasini belgilaydi, ikkinchi tomondan, u yoshlarning duniyaviy va ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Estetik didning o'sishi va rivojlanishi, faqat san'at bilan bog'liq tushunchalarni qabul qilish bilan cheklanmay, insonning umumiy estetik sezgirligini va dunyoga nisbatan munosabatini o'zgartirishga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatning ma'naviy va estetik qadriyatlarini mustahkamlashga, shuningdek, har tomonlama rivojlangan, komil shaxslarning shakllanishiga asos yaratadi.

Bugungi kunda dunyoda ommaviy madaniyatning estetik didga bo'lgan ta'siri tobora kuchayib bormoqda. Ommaviy madaniyat, shuningdek, texnologik inqiloblarning ta'siri bilan

go'zallik va estetik normativlar shakllanib, yangi sun'iy go'zallik idealari yaratilmoqda. Bugungi kunda, estetik did nafaqat shaxsiy tanlovni anglatadi, balki bu shaxsning ijtimoiy, iqtisodiy, va madaniy holatini ham ifodalaydi. Aynan shu sababli ham, ommaviy madaniyatning go'zallik haqidagi tasavvurlari va normativlarining tahlili jamiyatning turli qatlamlaridagi qarashlarni, hissiyotlarni va ijtimoiy rolni ko'rsatadi.

Estetik did, sub'ektiv va ijtimoiy elementlarning kombinatsiyasidan iborat bo'lgan estetik ong strukturasining unsuri. Bu, faqat estetik baholashni anglatmaydi, balki shaxsning ijtimoiy pozitsiyasini, madaniy o'zligini, va go'zallikni qabul qilishdagi qarashlarini ham aks ettiradi. Estetik did – insonning hayot va san'atning barcha sohalaridagi estetik hodisalarni farqlash, tushunish va baholash qobiliyatidir. Estetik did mehnatning turli sohalaridagi tajribalar natijasida vujudga kelib, uning yuksak yoki pastligi biror narsa yoki hodisaga berilgan baho, bildirilgan munosabatda namoyon bo'ladi. Estetik did insonning tabiat, jamiyat, hayot haqidagi tasavvurlari hamda kechinmalari darajasini bildiradi. Tabiat, jamiyat, san'at va insondagi go'zallikni xunuklik, noziklikni qo'pollikdan, yaxshini yomondan ajrata bilish estetik didning harakteri va darajasini ko'rsatadi [2,497].

Estetik did kishining narsa va hodisalarning nafosatini, go'zalligini va mazmunini to'liq tushunish va baholash qobiliyatidir. Estetik didga ega bo'lgan shaxs narsa va hodisalarni faqat ular haqidagi oddiy tasavvur asosida emas, balki estetik me'yorlar bo'yicha idrok etadi. Bu, shuningdek, san'at asarlarini ham go'zallik va ulug'vorlik nuqtai nazaridan qadrlay bilishni anglatadi. Estetik did, umumiy didning yuksak darajasida shakllanib, kishining narsa va hodisalarni nafaqat amaliy manfaatlar, balki estetik qadr-qiymat asosida baholay olish imkoniyatini beradi.

Estetik didga ega bo'lmagan shaxs uchun, masalan, san'at asarlari o'z qiymatini faqat narx va boshqa tashqi ko'rinishlari bilan o'lchash mumkin. Bunday shaxs san'atni nafaqat uning ma'naviy qadriyatlaridan, balki nafosatidan baholay olmaydi. Estetik did esa insonni san'at asarlarini go'zallik va ruhiy qadriyatlar nuqtai nazaridan qadrlashga yo'naltiradi. Boshqacha aytganda, estetik did go'zallik va nafosatdan ruhiy va ma'naviy lazzatlanishni ta'minlaydi.

Estetik did, asosan, shaxsning o'z ruhiy va his-tuyg'ulari, tafakkuri va kechinmalari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu, narsa va hodisalarni nafosat va go'zallik mezonlari asosida baholash faqat mantiqiy fikr emas, balki shaxsning ichki hissiyotlari va his-tuyg'ulari bilan bog'liq subyektiv munosabatidir. Shu boisdan, estetik did ko'pincha insonning tug'ma qobiliyatlari sifatida qaraladi, chunki bu didning shakllanishi, har bir insonning shaxsiy ruhiy va estetik tajribalariga bog'liqdir.

Estetik did muayyan obyektiv va subyektiv omillar birligi ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Did estetik anglashning eng muhim unsuridir. Shu nuqtai nazardan estetik did tarbiyasi

inson kamolotida muhim o‘rin tutadi. Did shunchaki baho emas, narsa-hodisa estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish orqali yuzaga keladigan xulosadir. Ammo did yagona, mutlaq estetik hodisa emas, u muayyan nisbiylik tabiatiga ega. Estetik did har kimda har xil bo‘lib, unda sub’yektiv mushohada kuchli. Shuning uchun ingliz faylasuflaridan biri Devid Yum did haqida bahslashmaydilar, ya’ni har kimning didi har xil degan fikrni ilgari surgan [3].

Insonning estetik didi bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchalardan biri ommaviy madaniyatdir. “Ommaviy madaniyat” aslida madaniyatsizlik, ma’naviyatsizlik va axloqsizlikning sinonimidir. “Ommaviy madaniyat” yuksak iste’dod va o‘lmas ma’naviy-axloqiy g‘oyalar bayroqdori bo‘lgan mumtoz madaniyatga, san’atga, uning boyliklariga qarshi kurashib, uni inkor etib kelmoqda. “Ommaviy madaniyat” insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etib, yuksak madaniyatni, ma’naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi. “Ommaviy madaniyat” vakillari, “Pop-art”chilarning dasturiy qarashiga ko‘ra ular insonni emas, balki narsa va buyumlarni e’zozlashadi. “Ommaviy madaniyat” vakillari ma’naviy dunyoni emas, maishiy-iste’molchilik his-tuyg‘ularini qadrlaydilar va ularni keng ommalashtirishga intiladilar.

XX asrda radio, kino, TV, video, kompyuterlar tizimining paydo bo‘lishi natijasida ommaviy madaniyat rivojining yangi bosqichiga qadam qo‘yildi. Bu bosqich ko‘pchilik uchun maqbul bo‘lgan qarashlar va qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari keskin darajada o‘sgani bilan ham xarakterlanadi.

Bugungi kunda, ommaviy madaniyat va ommaviy axborot vositalari orqali estetik normativlar global miqyosda taqdim etilmoqda, va bu normativlar ko‘pincha ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy qudratlarning mahsulidir. Shu bilan birga, estetik tanlovlarning shakllanishi ham ko‘pincha ijtimoiy sinf va gender kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilsak, “ommaviy madaniyat” ya’ni pop-madaniyat – jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo‘lgan madaniyat hisoblanadi. “Ommaviy madaniyat” mohiyatiga ko‘ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqea-hodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to‘lib toshgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, zamonaviy “ommaviy madaniyat”ning maqsadi insonlarni milliylikdan uzoqlashtirish, dunyoni bir tizimga solib standart holatda, bitta oqim bo‘ylab harakatlanishini ta’minlashdan iborat, bo‘lib u makon, yosh, jins va millat tanlamaslik xususiyatiga ega. “Ommaviy madaniyat” degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig‘dirolmaydigan ko‘plab axloqiy buzuvchilik g‘oyalari mavjud. Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarni tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi.[4,73] Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni “madaniyat” deb atalishi,

yoyinki, ming yillik ma'naviy qadriyat va an'analarni bepisandlik bilan "eskilik sarqiti" deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an'analarni bilan almashtirish ongli insonga xos bo'lmagan odatdir.

Yetakchi G'arb mamlakatlarida estetik va ma'naviy-madaniy ehtiyojlari nisbatan tor odamga mo'ljallangan ijodiy asar yoki buyumlarni ommaviy ravishda ishlab chiqarish tadbirkorlikning bir turiga aylangan. Ommaviy madaniyat bozor bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning qonunlariga muvofiq doimo foyda keltirishi kerak. Shunga ko'ra ommaviy madaniyat ko'rinishidagi ijodiy asarlar (kino, musiqa, moda) axloqiy buzulish va zo'ravonlik, individualizm, egosentrizm g'oyalarini targ'ib qiladi.

Agar "Ommaviy madaniyat", "olomoncha madaniyat" dunyoga "ehson" etayotgan "pop-art" ("tasviriy san'at"), "pop-muzika", "pop adabiyot" natijalariga qarab hukm yuritiladigan bo'lsa, ular insoniyat yaratgan barcha qadriyatlarni isyonkorlik bilan inkor etadi: yuksak madaniyatni, ma'naviyatni, axloqni, yuksak orzu-maqсадlarni mensimaydi. Eng muqaddas diniy tushunchalar va ilohiy buyruqlar ham bular uchun hech qanday ahamiyatga ega emasdir. Jumladan, san'at – alohida iste'dodlar tomonidan yaratiladigan ma'naviy boylik, mo'jiza ekanligi kabi ijodning oliy mezonlari "Ommaviy madaniyat" tarafdorlarining g'ashini keltiradi. Ularning fikricha, hamma san'atkor bo'lishi mumkinligi bilan birgalikda hamma narsa san'at deb atalishi mumkin.

Ommaviy madaniyat va texnologik inqilob, ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali yaratilgan sun'iy go'zallik me'yorlarini shakllantirmoqda. Sun'iy go'zallikni yaratishda ishlatiladigan filmlar, tasvirlar, tahrirlangan rasmlar va filtrlar go'zallikni haqiqiylikdan ajratadi va yangi estetik me'yorlarni yuzaga keltiradi. Bu holat, simulyatlarni, ya'ni haqiqiylik va uning nusxalari orasidagi tafovutni namoyon qiladi.

Go'zallik insoniyat estetik tafakkurining eng qadimiy va nafosatning markazida turadigan tushuncha bo'lib, u inson ruhiyatida estetik zavq, hayrat va hayajon uyg'otadigan his-tuyg'ularni mujassam etadi. Biroq bu go'zallik har doim ham tabiiy ko'rinishda bo'lmagan. Ijtimoiy taraqqiyot davomida, estetik ehtiyojlar, shaxsiy qarashlar, jamiyat talablari va texnologik imkoniyatlar tufayli go'zallik sun'iy shakllarda ham vujudga kelgan. Aynan shu nuqtada sun'iy go'zallik tushunchasi yuzaga chiqib, bu hodisa nafaqat estetik fenomen, balki sotsiologik, psixologik va madaniy ko'lamga ega bo'lgan murakkab ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Sun'iy go'zallik deganda inson tomonidan ongli ravishda yaratilgan yoki tabiiy ko'rinishga estetika nuqtai nazaridan aralashuv asosida shakllantirilgan go'zallik nazarda tutiladi. Bunga kosmetik vositalardan foydalanish, plastik jarrohlik amaliyotlari, raqamli tasvirlar, sun'iy dizayn va umuman inson estetik faoliyati orqali yaratilgan har qanday chiroyli obraz kiradi. Bu holatda

go‘zallik nafaqat mavjud narsaning passiv ko‘rinishi, balki inson tafakkuri mahsuli, ya’ni yaratilgan hodisa sifatida tushuniladi.

Estetika tarixiga nazar tashlansa, sun’iy go‘zallik tushunchasi ham boshqa falsafiy masalalar qatorida faylasuflar muhokamasi markazida bo‘lganini ko‘rish mumkin. Qadimgi yunon faylasufi Platon go‘zallikni haqiqiy dunyo emas, balki “g‘oyalar olami”dagi ilohiy mukammallik sifatida talqin qilgan [5,44]. Shu sababli, u sun’iy ravishda yaratilgan obrazlarni haqiqatdan uzoqlashuv, aks va soya deb hisoblagan. Platonning bu qarashida tabiiylik ustuvor, sun’iylik esa pastroq darajada turgan. Biroq Aristotel go‘zallikka nisbatan ancha hayotiy yondashgan. Uning fikricha, go‘zallik uyg‘unlik, muvozanat va tartibdan iborat bo‘lib [6,14], inson bunday uyg‘unlikni sun’iy yo‘l bilan ham yaratishga qodir. Bundan kelib chiqadiki, Aristotel ta’biricha, sun’iy go‘zallikning estetik qadri inkor etilmaydi, balki u shakl va mazmun uyg‘unligiga erishgan holdagina aksiologik ahamiyati yuzaga keladi.

Zamonaviy estetik tafakkurda esa sun’iy go‘zallik tushunchasi bir qadar kengaygan va bu borada ko‘p qirrali talqinlar yuzaga kelgan. Xususan, Immanuel Kant estetik tajribani subyektiv hodisa deb qaraydi. Uning fikricha, go‘zallik bizda yoqimlilik hissini uyg‘otgan narsa [7,64], ya’ni u estetik baholashning ob’yektiv me’zonlari yo‘qligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv sun’iy go‘zallikni ham tabiiy go‘zallik qatorida estetik zavq manbai sifatida tan olish imkonini beradi. Ayniqsa, bugungi raqamli davrda sun’iy go‘zallik ko‘plab sohalarda o‘z ifodasini topmoqda: ijtimoiy tarmoqlarda filtrlangan suratlar, kompyuter grafikasi orqali yaratilgan obrazlar, moda sanoatidagi stilizatsiyalangan ideal ko‘rinishlar, kosmetologiya va estetik tibbiyotda yaratilgan tashqi ko‘rinishlar sun’iy go‘zallikning keng tarqalgan shakllaridir.

Sun’iy go‘zallik jamiyatda estetik me’yorlarning o‘zgaruvchanligini va go‘zallik tushunchasining subyektivligini namoyon etadi. Shu bilan birga, bu hodisa bir qator tanqidiy yondashuvlarni ham yuzaga keltirgan. Feministik estetikada, masalan, sun’iy go‘zallik ayollar ustidan nazoratning ramzi sifatida baholanadi. Jamiyat tomonidan belgilangan go‘zallik standartlariga moslashish talabi ayollarni o‘z jismoniy qiyofasini sun’iy o‘zgartirishga majbur etadi. Bu esa jamiyatdagi gender tengsizlik, tashqi bosim va madaniy stereotiplarga olib keladi.

Xususan, ba’zi hollarda ayollar go‘zallik ortidan quvib, unga erishish uchun ko‘p narsalarga tayyor bo‘lishadi. Ko‘pchilik o‘zini og‘ir diyetalarga soladi, ba’zilar esa mushaklarini kattalashtirishni istashadi, ba’zan o‘ta kuchli jismoniy mashqlar bilan o‘zini qiynaydi. Agar moliyaviy barqarorlik bo‘lsa, ko‘pincha plastik jarrohlar xizmatiga murojaat qilishadi. Ba’zida bu go‘zallikka intilishlar shu darajada kuchayib ketadiki, qizlar o‘zlarini to‘xtata olmay qolishadi. Ular hatto yuzidagi ajinlarni va labini shishirish uchun botoks amaliyotiga ham rozi bo‘lishadi. Botoks bu – bu yuzdagi ajinlarni yo‘qotish va labni shishirish uchun yuz mushaklariga yuboriladigan neyrotoksin bo‘lib, ushbu preparat mushaklarni bo‘shashtirish va terini tekislash

bilan birgalikda dinamik ajinlar paydo bo'lishini kamaytiradi. Terining silliq va yosh ko'rinishiga yordam beruvchi bu amaliyot jarrohlik usulida emas, balki ambulator sharoitda qisqa vaqt ichida amalga oshiriladi. Botoksdan foydalanish, ayollarning o'z go'zalligini va tashqi ko'rinishini erkin ifodalashga imkon berishi barobarida o'zini ifodalashning bir shakli bo'lib, ular o'zlarini yosh va jozibali ko'rishlarini istashlari tabiiy holat sifatida qaralishi mumkin. Biroq, bu harakat ba'zida ijtimoiy qarashlarga moslashishda muammolar yuzaga kelishi bilan gavdalanadi. Bu esa o'z-o'zini erkin ifodalashning haqiqiy ma'nosidan uzoqlashishiga olib kelishi mumkin. Natijada vaqti-vaqti bilan OAVda va ijtimoiy tarmoqlarda tanqidlarga to'la kontentlar va anoreksiyaga chalingan ayollar tanasining dahshatli suratlari paydo bo'ladi.

Postmodern estetikada esa sun'iylik inkor etilmaydi, aksincha qabul qilinadi. Postmodernizm go'zallikni subyektiv, nisbiy va ijtimoiy konstrukt sifatida talqin qiladi. Bu qarashga ko'ra, tabiiy va sun'iy go'zallik o'rtasidagi chegaralar yo'qoladi. Har qanday vizual obraz, xoh u filtrlangan selfi bo'lsin, xoh virtual model, estetik qadriyat sifatida qaralishi mumkin. Bu esa san'at va go'zallik haqidagi an'anaviy tushunchalarni yangilaydi. Ammo bu holatning ikkinchi tomoni ham bor: ijtimoiy tarmoqlarda so'nggi vaqtlarda "qizaloqdek" ko'rinishga ega bo'lgan qizlar ommalashib bormoqda. Aksariyat hollarda bu — xuddi qo'g'irchoq kabi tashqi ko'rinish: farfordek oppoq teri, katta ko'zlar, kichkina va bo'rtib chiqqan lablar.

Postmodernizm XX asr o'rtalari va oxirlarida rivojlangan yo'nalish bo'lib, u asosan falsafa, san'at, arxitektura va adabiy tanqidchilikda modernizm an'alaridan chekinishni o'zida ifodalaydi. Postmodern estetika san'at va go'zallik tushunchalarini an'anaviy, ob'ektiv mezonlardan ozod qilgan falsafiy oqim bo'lib, XX asrning ikkinchi yarmida modernizmga hamohang tarzda shakllangan. U mumtoz estetikaning yaxlitlik, uyg'unlik, chuqur ma'no va taraqqiyot kabi asosiy tamoyillarini rad etib, ularning o'rniga nisbiylik, fragmentatsiya, intertekstuality va simulyakrum kabi tushunchalarni ilgari suradi.

Postmodernistlarning qarashlariga ko'ra, san'at asarlari endi haqiqatni aks ettirishga emas, balki haqiqatning o'rnini bosuvchi belgilar o'yiniga aylanib bormoqda. Postmodern mutafakkirlari shaxsiy yoki ma'naviy ehtiyojlar insonlarning ijtimoiy yashash sharoitlarini yaxshilash, nisbatan elastik va moslashuvchan tartiblar o'rnatish orqali qondirish mumkin deb hisoblashadi. Postmodernizm asosan obyektiv voqelik, axloq, haqiqat, inson tabiati, aql, ilm-fan, til va ijtimoiy taraqqiyot kabi universal g'oyalar tanqid ostiga olinadi. Ya'ni ularning hech biri universal xarakterga ega emas, balki muayyan tarixiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar tomonidan yuzaga keltirilgan deb hisoblanadi.

Hozirgi dunyoda inson go'zalligi tushunchasi tobora sun'iy lashib, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, botoks, plastik operatsiyalar, filtrlar orqali "yaratilgan" chehralar kishilarning tabiiy go'zalligini siqib chiqarmoqda. Bunday manzaralar nafaqat estetika sohasidagi muayyan

o'zgarishlarni aks ettiribgina qolmasdan, balki insonning o'zligini, ma'naviyatini va qadriyatlarini yo'qotish xavfi mavjudligini ham anglatmasdan qolmaydi.

Falsafiy jihatdan tahlil qilinganda, bu kabi ko'rinishlar postmodern simulyakrum (yasama haqiqat) hodisasini eslatadi. Chunonchi, inson tabiiy go'zallikni emas, balki uning imitatsiyasini tanlash bilan birgalikda unga haqiqat deb baho beradi. Aslini olganda bu teskari proporsional hodisa, yani haqiqatdan uzoqlashuvdir. Endilikda go'zallik mehr, odob, tavoze kabi ichki, botiniy sifatlarga emas, balki yuzaki va sun'iy belgilarga qarab baholanishi kuzatilmoqda.

O'zbek xalqi azaldan tabiiylik va soddalikni go'zallik mezoni sifatida qabul qilgan. Ayol obrazini esa nafaqat tashqi qiyofa, balki uning hayo, iffat, odob va sabr-toqat kabi fazilatlarini orqali tasvirlagan. Bu qadimiy yondashuvda ayolning jamiyatdagi o'rnini faqat jozibali ko'rinish bilan emas, balki uning ma'naviy olami va axloqiy yuksakligi bilan baholanadi. Shunday ekan, sun'iy go'zallikni ma'naviy qadriyatlar bilan solishtirish, bu boradagi mulohazalarni yanada chuqurlashtirish juda muhim. Islom dini ham bu borada aniq mezonlarni belgilagan. Insonning qadr-qimmatini qalbining pokligi, undagi imon-ixlos va qilgan yaxshi amallari bilan o'lchanadi. Qalbi pok, imonli inson dunyodagi barcha go'zal suratlardan go'zaldir [8,25]. Qur'oni karimda inson eng go'zal suratda yaratilgani ta'kidlanadi. Bu ilohiy e'tirof, Allohning yaratgan suratini qabul qilish, unga razm solib, shukr qilishga da'vatdir. Rasululloh (s.a.v.) esa tabiiy ko'rinishni sun'iy o'zgartirgan ayollarni la'natlaganliklarini bildirganlar. Bu borada O'zbekiston musulmonlari idorasi Fatvo bo'limi mutaxassisi Abdulatif Tursunov: "Azaldan ayollar pardozi qilishga moyil bo'lganlar. Avvalgi ayollarning qilgan pardozlari tabiiy vositalardan bo'lgan. Ayniqsa tabiiy moylar, gul va ifor yog'lari, surma, xina va o'smadan pardozi uchun foydalanib kelishgan. Shuning uchun ular hatto 70-80 yoshlarida ham o'z go'zalliklarini yo'qotishmagan. Ammo keyingi vaqtlarda nafaqat yoshlar, balki katta yoshdagi ayollarda ham sun'iy pardozga berilish hollari urf bo'lib bormoqda. Shariatimizda ayollarning qosh va yuzdagi tuklarni terishi yoki terdirishi, sun'iy tarzda husnini o'zgartirishi gunoh sanaladi. Ko'plab hadisi shariflarda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam tanasiga surat chizdiruvchi, qosh teruvchi, qosh terdiruvchi, Alloh yaratgan husnni o'zgartirib, sun'iy go'zallikka harakat qiluvchi ayollarni la'natlaganlar.

Hozirgi kunda zamonaviy go'zallik tabiiylikdan uzoqlashib, sun'iy shakllarga bo'ysunayotganini yuqorida ham ta'kidlab o'tdik. Tatuировka esa bu jarayonning yorqin timsoli bo'lib, uni insonning ichki bo'shlig'ini tashqi izlar bilan to'ldirishga bo'lgan urinishi deb baholash mumkin. Tatuировka og'riqli jarayon bo'lib, bunda inson o'z sog'lig'ini xavfga qo'yish evaziga igna orqali tanasiga rasm tushiradi. Mutaxassislar bunday "sun'iy go'zallik amaliyoti"ni boshidan o'tkazgan shaxslarda o'nlab kasalliklarga chalinish ehtimoli yuqori degan fikrni ilgari surishadi. Chunonchi, bo'yoqlar tarkibida saraton chaqiruvchi simob, xrom, kadmiy, qo'rg'oshin kabi og'ir metallar mavjud bo'lib, ular inson organizmiga chuqur salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tatuировka

vositalari orqali gepatit B, C va OIV infeksiyalari yuqishi ehtimoli oshadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tatuirovkasi bor insonlar gepatit S ga oddiy odamlarga qaraganda to'qqiz baravar ko'proq chalinadi. Boz ustiga, «Mycobacterium haemophilum» bakteriyasi kishi immunitetini zaiflashtirib, sil va moxov kasalliklariga olib keluvchi xavfli mikroorganizm sifatida ko'pincha tatuirovka vositasida odam organizmga kirib keladi. Bundan kelib chiqadi-ki, tatuirovka sun'iy go'zallik pardasi ortida yashiringan kishilar sog'lig'i va ma'naviyatga tahdid sifatida namoyon bo'ladi. U nafaqat tanaga, balki insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga ham chuqur zarar yetkazadi. Bunday amaliyot milliy qadriyatlarimizga ham, islomiy aqidamizga ham zid bo'lib, tabiiy go'zallikning intihosini ko'rsatadi. Xususan, Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam shunday deganlar: "Badanga igna bilan surat chizuvchi va chizdiruvchi ayollarga, qoshni teruvchi va terdiruvchi ayollarga, husn uchun tishlarining orasini ochuvchi ayollarga va Alloh yaratgan (shakl)larini o'zgartiruvchilarga Alloh taoloning la'nati bo'lsin" (Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Nasaiy rivoyati) [9].

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi natijasida shakllangan go'zallik idealari nafaqat tashqi ko'rinish me'yorlarini, balki insonlarning emotsional va psixologik holatini ham manipulyatsiya qilmoqda. Instagram va TikTok kabi ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilinayotgan go'zallik tasvirlari ijtimoiy ongga singdirilib, standartlashtirilgan estetik qadriyatlarni shakllantiradi. Bunday raqamli makonlarda yaratilgan ideal obrazlarga moslashishga intilish natijasida shaxslar tabiiylikdan yiroqlashgan, tahrirlangan va sun'iy go'zallik me'yorlarini qabul qilishga majbur bo'lmoqda. Natijada, go'zallik tushunchasi ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlar asosida boshqariladigan, tijoratlashgan konstruksiyaga aylanishi kuzatilmoqda, bu esa asl va tabiiy go'zallik mezonlarining o'zgarishiga olib keladi.

Ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyatda estetik va go'zallik me'yorlarini shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy omillardan biri hisoblanadi. Frankfurt maktabi vakillari – Adorno va Horkheimer tomonidan ilgari surilgan madaniyat industriyasi nazariyasiga ko'ra, ommaviy madaniyat vositalari orqali jamiyat a'zolarining dunyoqarashi, xususan go'zallik haqidagi tasavvurlari standartlashtiriladi va boshqariladi [10]. Afsuski, ushbu nazariya bugungi kunda mamlakatimiz ijtimoiy-madaniy kontekstida ham dolzarbligini yo'qotmayapti.

Globallashuv hodisasining mahsuli bo'lgan ommaviy madaniyat va mass-media platformalari orqali tarqalayotgan go'zallik tasvirlari ko'pincha G'arb estetikasi va tijorat manfaatlariga asoslanadi. Bu esa milliy estetik qadriyatlarimiz: soddalik, tabiiylik, ichki uyg'unlik va madaniy kontekstda shakllangan go'zallik mezonlarini chekinishga majbur qilmoqda. Kommersiyalashgan va sun'iy go'zallik idealari xalqimizning an'anaviy go'zallik haqidagi tasavvurlariga zid ravishda, tashqi ko'rinishni muhimlashtirish orqali insonni iste'molchi sifatida shakllantiradi.

Bunday estetik g'oyalarning ommaviy targ'iboti natijasida ijtimoiy erkinlikning cheklanishi kuzatiladi. Shaxslar o'z estetik tanlovlarini endilikda milliy qadriyatlarga tayanmasdan, balki global tijorat bozori talablariga mos ravishda amalga oshirishga majbur bo'ladi. Pirovardda, kishilar qanday kiyinish, qanday muomala qilish, qanday tashqi ko'rinishga ega bo'lishi kerakligi haqidagi qarorlarini ichki ehtiyojlar negizida emas, balki tashqi bosimlar asosida qabul qiladilar.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda ommaviy madaniyat hodisasi sifatida sun'iy go'zallik idealari jamiyatda estetik didning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Go'zallik standartlari mass-media vositalari orqali targ'ib qilinib, insonlar ongida iste'molchilikka yo'naltirilgan estetik me'yorlar mustahkamlanmoqda. Sun'iy go'zallikning ommalashuvi natijasida estetik tanlovlar shaxsiy va madaniy kontekstdan uzoqlashib, tijorat manfaatlariga moslashmoqda. Mazkur jarayon, o'z navbatida, individuallikni cheklab, milliy estetik qadriyatlarimizni soya ostida qoldiradi hamda ijtimoiy ongda go'zallikning tabiatga mos, muvozanatli talqinini zaiflashtiradi. Go'zallik endilikda hayotiy mazmunga ega bo'lgan estetik hissiyot emas, balki ishlab chiqarilayotgan va iste'mol qilinayotgan vizual mahsulotga aylanmoqda. Shu munosabat bilan, zamonaviy estetik me'yorlarga tanqidiy yondashish, milliy ma'naviy-estetik qadriyatlarimizni qayta anglash va uni global madaniyat kontekstida mustahkamlash dolzarb vazifa sifatida namoyon bo'lishini alohida ta'kidlash joiz. Estetik didni shakllantirish jarayonida milliy identitet, madaniy meros va tabiiylik mezonlariga asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Faqatgina mana shunday asosda jamiyat ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlariga qarshi ilmiy asoslangan, ongli va barqaror milliy-madaniy immunitetni shakllantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. –Т.: Ўзбекистон, 2-жилд, 2018. 196-бет.
2. G'aybullayev O. Nafosat falsafasi. Darslik. Samarqand – 2024. 497-b.
3. <https://malumot.ru/estetik-did-tarbiyasi/>
4. Каримов И. Юксак маънавият – енгилмас куч , Тошкент «Маънавият» - 2008, 73-6
5. Abdulla Sher. Estetika. Toshkent. "O'zbekiston" – 2014, 44-b
6. Olloyorov M. Uyg'unlik (garmoniya) borliqni estetik o'zlashtirishning qonuni sifatida. Samarqand – 2011. 14-b
7. Abdulla Sher, Bahodir Husanov, Erkin Umarov. Estetika. Toshkent – 2008, 64-b
8. Ишматбеков Ҳ. Соғлом турмуш тарзи ислом дини нигоҳида. Тошкент – 2021,

25-6er

9. <https://kun.uz/news/2021/02/08/botoks-filler-va-boshqalar-gozallik-qurbonlikka-arziydimi>
10. <https://monocler.ru/kulturindustriya-adrno-i-horkhaymera/>